Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(IMPACT FACTOR)9.573/2025 ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son /2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg'un G'AFUROV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa'd DAMANHURIY – islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 4-noyabrdagi 03-07/7225-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:
Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shahzod Islamov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:
Zarifjon Arslonov

Dizayner:
Zarifjon G'ulomov

«**Moturidiylik**» jurnali **O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi**ning 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy.
E-mail: info@maturidijournal.org
Web-sahifa: maturidijournal.org
Telefon: (+99855) 515-98-98,

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MUNDARIJA

ISLOMSHUNOSLIK

Ikhtiyor ABDURAKHMONOV
Allohning kalom sifati haqidagi aqidaviy qarashlar va ularning talqini 5

Jobir ELOV
Imom Buxoriy ta’limotidagi axloqiy tamoyillarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni 9

Yahyobek HAYITALIYEV
Radikal g‘oyalarning yoshlar ongiga kirib borish yo‘llari («soxta salafiylik» misolida) 16

Abdullatif ALLOQULOV
Moturidiylikda takvin sifati: ma’nosi va zotiy sifat bilan aloqasi 22

Qudratulloh SIDIQMETOV
Ilk takfirchi firqalarning shakllanishi va ularning xatarlari 27

Botirkhon RUZIYEV
Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy faoliyati tahlili 32

Abdulaziz YAKHSHILIKOV
Aqoid ilmi shakllanishi va rivojlanish bosqichlari 40

Oishakhon SALIMOVA
Imom Moturidiy va uning izdoshlari ilmiy merosining islom ilmlari rivojidagi o‘rni 47

Aydos YAKUPOV
Imom Abu Mansur Moturidiyning kalom ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi 50

Nasrullo TOKHTAYEV
Moturidiylik ta’limotining o‘ziga xos jihatlari 55

ISLOM HUQUQI

Muhammad Khodiy AKHMEDOV
Mazhablarning ahamiyati: dalillar va ilmiy asoslar 59

DINSHUNOSLIK

Bobomurod RUSTAMOV
O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni hamda diniy sohadagi davlat siyosati 63

Abdullaziz ABDUVAKHIDOV
Zamonaviy ta’limda ma’rifatning o‘rni 67

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIK

Tokhir KHATAMOV
Xorijiy fondlardagi tasavvuf ta’limotiga oid manbalarning yurtimizda tuzilgan reyestrlarda tasnif etilishi 72

Ahmadkhon RASHIDOV
O‘rta asrlar islom olamida qiroat ilmining rivojlanishi va uning mashhur namoyandalari 81

Samariddin AKHMEDOV
Umar Jandiyning «al-Iqlid» asari metodologiyasi 89

Nozima IBRAGIMOVA
Abbosiylar davri elchilik munosabatlarining konseptual qoidalari 95

Khalilulloh SAIDAKBAROV
Ibn Kasirning «al-Bidoya va-n-nihoya» asarida foydalangan manbalari 102

Zarifjon GULOMOV
«Kitob at-tavhid» tanqidiy nashrlarida matniy tafovutlar va tahrir tamoyillari 107

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-M/8

Oishakhon SALIMOVA[a]

[a] *Student of Khadichai Kubro Secondary Special Islamic Educational Institution for Women*
1, Fayziobod Street, Tashkent, 100011, Uzbekistan
E-mail: oyshahonsalimova@gmail.com

IMOM MOTURIDIY VA UNING IZDOSHLARI ILMIY MEROSINING ISLOM ILMLARI RIVOJIDAGI O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Imom Moturidiy va uning izdoshlari tomonidan yaratilgan ilmiy merosning islom ilmlari, xususan, aqida, kalom va tafsir sohalarining rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilingan. Imom Moturidiy asos solgan Moturidiylik maktabining ilmiy-uslubiy yondashuvi, aql va naql uyg‘unligiga asoslangan tafakkuri musulmon dunyosida mo‘tadil va bag‘rikeng dunyoqarashning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Maqolada, shuningdek, uning izdoshlari tomonidan ushbu maktab an’analarining keyingi avlodlarga yetkazilishi hamda Movarounnahr, Usmoniylar davlati va Hindiston kabi hududlardagi ta’siri yoritilgan. Shu bilan birga, mazkur ilmiy merosning bugungi kunda ham zamonaviy aqidaviy va fikriy muammolarga yechim topishdagi dolzarb ahamiyati ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *Imom Moturidiy, Moturidiylik, islom ilmlari, ilohiyot tafakkuri, aqidaviy meros, ilmiy an’ana.*

THE ROLE OF THE LEGACY OF IMAM AL-MATURIDI AND HIS FOLLOWERS IN THE DEVELOPMENT OF ISLAMIC SCIENCES

Abstract. *This article analyzes the role of the scholarly legacy of Imam al-Maturidi and his followers in the development of Islamic sciences, particularly in the fields of aqidah (Islamic creed), kalam (Islamic theology), and tafsir (Qur’anic exegesis). The study examines the scholarly and methodological approach of the Maturidi school founded by Imam al-Maturidi, highlighting its emphasis on the harmony of reason (aql) and revelation (naql), which significantly contributed to the formation of a balanced and tolerant worldview across the Muslim world. The article also explores how this intellectual tradition was preserved and transmitted by his disciples to subsequent generations, as well as its influence in regions such as Transoxiana (Mawarannahr), the Ottoman Empire, and the Indian subcontinent. Furthermore, it emphasizes the continuing relevance of this scholarly heritage in addressing contemporary theological and intellectual challenges.*

Keywords: *Imam al-Maturidi, Maturidism, Islamic sciences, theological thought, doctrinal heritage, scholarly tradition.*

Islom ummati uchun eng tahlikali davrlardan birida musulmonlar aqidasini mardonavor himoya qilgan, musulmonlar ommasi e'tiqodining Qur'oni karim, Payg'ambar (s.a.v.) sunnatlari hamda ahli sunna val jamoa yo'lida sobitqadam bo'lishiga munosib hissa qo'shgan Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hanafiy Moturidiy Samarqandiy (vaf. 944-y.) «Hidoyat imomi» va «Musulmonlar e'tiqodining islohotchisi» kabi yuksak unvonlarga sazovor bo'lgan. U qadimiy Samarqandning Moturid qishlog'ida tavallud topgan. Dastlabki ta'limni otasi Muhammad ibn Mahmuddan olgan, so'ng davrning boshlang'ich maktabida tahsil ko'rgan. Keyinchalik ta'limini Samarqanddagi Raboti G'oziyon masjidi huzuridagi madrasada davom ettirgan. Uning hayoti asosan Samarqandda kechgan bo'lib, shu yerda hanafiy mazhabi ulamolaridan fiqh ilmidan ta'lim olgan. Shuningdek, Samarqandlik olim Muhammad ibn Fazlning shogirdi bo'lgan.

Imom Moturidiy yashagan davr Abbosiylar davlati hukmronligining ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu davr hijriy 248-yildan boshlanib, siyosiy hayotda Abbosiy xalifalarining zaiflashuvi, turk va fors xalqlarining siyosiy nufuzi ortishi hamda turli mustaqil davlatlarning vujudga kelishi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, Abbosiylar davrida ilmiy harakatlar kengayib, qadimgi yunon, lotin va boshqa tillardagi asarlarni arab tiliga tarjima qilish keng quloch yoydi. Mazkur tarjimalar orasida foydali manbalar bilan bir qatorda, musulmon jamiyatida turli aqidaviy va fikriy qarashlarning tarqalishiga sabab bo'lgan asarlar ham mavjud edi. Natijada qarmatiylar, mo'taziliylar, murjialar, qadariylar va jabariylar kabi turli oqimlar shakllanib, ular Qur'oni karim va sunnatdan ko'ra aqliy mulohazalarga tayanib bahs-munozaralar olib bora boshladilar. Bu holat musulmonlar jamiyatining diniy hayotiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Aqidasi buzilgan ayrim toifalar, jumladan, zanjiylar, qarmatiylar, hashshoshiylar, ubaydiylar va botiniylar ochiq qarshilik harakatlarini boshladilar. Jamiyatda maishatparastlik, mol-dunyoga haddan tashqari berilganlik va dabdababozlik kuchaydi. Joriya saqlash, ayniqsa, qo'shiqchi va raqqosa joriyalarga egalik qilish keng tarqaldi. Shuningdek, tasavvuf nomidan faoliyat yurituvchi tarkidunyochilik, qalbaki zohidlik va shunga o'xshash oqimlar ham ko'paydi. Turli davlatlarning markaziy hokimiyatdan ajralib chiqishi musulmonlar birligining zaiflashishiga olib keldi. Natijada jamiyatda ilmsizlik, bid'at va xurofotlar keng tarqala boshladi[1].

Har bir davrning ijtimoiy, siyosiy va diniy-e'tiqodiy muhiti o'sha zamonda yashagan jamiyat va shaxslar faoliyatiga ta'sir ko'rsatgani kabi, bu omillar Abu Mansur Moturidiy faoliyatida ham muhim o'rin tutdi. U yashagan davrda yunon va boshqa tillardan tarjima qilingan ayrim asarlardagi xudosizlik, axloqsizlik va boshqa buzg'unchi g'oyalar ta'sirida fikriy hamda aqidaviy sohalarda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Bu esa ularga qarshi ilmiy asosda kurash olib borish zaruratini tug'dirdi. Abu Mansur Moturidiy mazkur kurashning peshqadam namoyandalaridan biri bo'ldi.

Shu bois alloma o'z zamonasidayoq «Hidoyatga boshlovchi imom», «Sunnat va hidoyat ahlining peshvosi», «Ahli sunna val jamoa bayrog'ini baland ko'taruvchi», «Xurofot va bid'atga asoslangan uydirmalarni ildizi bilan qo'poruvchi» hamda «Musulmonlar aqidasini isloh etuvchi» kabi yuksak e'tiroflarga sazovor bo'lgan.

Abu Mansur Moturidiy Alloh taoloning inoyati bilan o'z davrining ahli sunna val jamoa e'tiqodiga mansub yirik hanafiy ulamolaridan ilm olgan. Xususan, Abu Nasr Iyoziy, Abu Bakr Ahmad Juzjoniy, Muhammad ibn Muqotil Roziy, Nusayr ibn Yahyo Balxiy kabi olimlardan tahsil ko'rgan. Shuningdek, Abu Hanifaning «al-Fiqh al-akbar», «ar-Risola», «al-Fiqh al-absat», «Kitob al-olim va-l-mutaallim» kabi asarlaridan saboq olgan[2].

Abu Mansur Moturidiy rahmatullohi alayh kalom va fiqh ilmlariga alohida ahamiyat bergan. U faqat mazkur ilmlarni o'rganish bilan cheklanib qolmasdan, balki Abu Hanifa rahmatullohi alayhdan keyin paydo bo'lgan masalalar yuzasidan kalom va fiqh sohalarida ijtihod qilib, ularga ilmiy yechimlar taklif etgan. Kalom ilmida yuksak martabaga erishib, ahli sunna val jamoa mazhabining yirik imomlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Moturidiy nafaqat mutakallim va aqidashunos olim, balki mufassir ham bo'lgan. Buning yorqin dalili sifatida uning «Ta'vilot ahl as-sunna» («Ahli sunna ta'villari») nomli tafsir asarini keltirish mumkin.

Shuningdek, Moturidiy kalom ilmiga oid «Kitob at-tavhid», «Kitob al-maqolot», «Kitob bayon vahm al-mo'tazila», «Kitob ar-radd ala al-usul al-xamsa li Abi Muhammad al-Bohiliy», «Kitob ar-radd avoil

[1] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hidoyat Imomi Abu Mansur Moturidiy. – Toshkentr: Hilol nashr, 2024. – B. 20.
[2] Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. – Toshkent: «Sharq» nashriyoti, 2005

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

al-adilla li-l-Ka'biy», «Radd tahzib al-jadal li-l-Ka'biy» kabi asarlarni ta'lif etgan[3].

Bulardan tashqari, Moturidiy usul al-fiqh va fiqh sohalariga oid «Ma'oxiz ash-sharia» hamda «Kitob al-jadal» asarlarini ham yozgan.

Imom Abu Mansur Moturidiy musulmonlarning hidoyat yo'lida sobitqadam bo'lishlari va turli adashuvlardan saqlanishlari yo'lida beqiyos xizmat ko'rsatgan. U «hidoyat bayrog'i»ni baland ko'tarib, Islom ummatini to'g'ri yo'lga boshlagan, tahlikali bir davrda ahli sunna val jamoa yo'lining haq ekanini ilmiy dalillar bilan asoslab bergan. Bu xizmatlari keyingi davr ulamolari va ko'plab davlat arboblari tomonidan ham yuksak e'tirof etilgan. Hatto milodiy 944-yilda Imom Moturidiy vafot etganida Abulqosim Hakim Samarqandiy uning qabriga: «Bu qabr nafis ilmlarni egallagan, ularni imkon qadar yoyish uchun butun kuchini sarflagan va din yo'lidagi asarlari bilan mashhur bo'lgan zotning qabridir», deb yozishni amr qilgan.

Shuningdek, Abul Muin Nasafiy, Imom Kafaviy, Zabidiy, Kamoliddin Ahmad Bayoziy Hanafiy, Imom Kavsariy kabi ulamolar ham o'z asarlarida Abu Mansur Moturidiyning ilmiy merosi va xizmatlarini yuksak baholaganlar.

Davrlar o'tishi bilan moturidiylik ta'limotiga xizmat qilgan va Imom Moturidiyning ilmiy an'analarini davom ettirgan ko'plab ulamolar yetishib chiqdi. Ular qatoriga Qozi Imom Abul Yusr Muhammad ibn Muhammad ibn Husayn Abdulkarim Bazdaviy, Abu Muin Maymun ibn Muhammad Mu'tamid ibn Maxhul Nasafiy, Najmiddin Abu Hafs Samarqandiy Nasafiy hamda Sa'duddin Mas'ud ibn Umar Taftazoniy kabilarni kiritish mumkin.

Mamlakatimizda ham Imom Moturidiy va uning ilmiy merosini o'rganish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2000-yilda Imom Moturidiy tavalludining 1130 yilligi keng nishonlanib, Samarqand shahrida alloma xotirasiga bag'ishlangan yodgorlik majmuasi bunyod etildi.

2020-yil 3–4-mart kunlari Samarqand shahrida «Imom Moturidiy va moturidiya ta'limoti: o'tmish va bugun» mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya tashkil etildi.

Shuningdek, 2020-yil 11-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Samarqand shahrida Imom Buxoriy majmuasi huzurida moturidiylik ta'limotini o'rganishga ixtisoslashgan Kalom ilmi maktabi, Qarshi shahrida esa Aqida maktabi faoliyati yo'lga qo'yildi.

[3] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hidoyat Imomi Abu Mansur Moturidiy. – Toshkent: «Hilol Nashr» nashriyoti, 2024. – B. 88.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. – Toshkent: «Sharq» nashriyoti, 2005.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hidoyat Imomi Abu Mansur Moturidiy. – Toshkent: «Hilol Nashr», 2024.

REFERENCES

1. Hoji Ismatulloh Abdulloh. Markaziy Osiyoda islom madaniyati. – Toshkent: «Sharq» nashriyoti, 2005.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hidoyat Imomi Abu Mansur Moturidiy. – Toshkent: «Hilol Nashr», 2024.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 12.10.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 $^{1}/_{8}$.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

«Standard Poligraf Service»
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.